

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

JUMATOV RASHID YANGIBAEVICH

**QARDOSH BO‘LMAGAN TILLAR TIZIMIDA TOPONIMLARNING
QIYOSIY-FUNKSIONAL TADQIQI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

UO‘K: _____

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Jumatov Rashid Yangibaevich

Qardosh bo‘lmagan tillar tizimida toponimlarning qiyosiy-funksional tadqiqi
(ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Жуматов Рашид Янгибаевич

Сравнительно-функциональное исследование топонимов в системе
неродственных языков (на примерах английского и узбекского языков) 29

Jumatov Rashid Yangibaevich

A comparative-functional study of toponyms in the system of unrelated languages
(in the English and Uzbek languages) 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 63

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

JUMATOV RASHID YANGIBAEVICH

**QARDOSH BO‘LMAGAN TILLAR TIZIMIDA TOPONIMLARNING
QIYOSIY-FUNKSIONAL TADQIQI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1621 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov O‘rol Usmonovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Doniyor Taxirovich,
filologiya fanlari doktori, dotsent,

Mardiyev To‘lqin Abduhakimovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2023- yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2023- yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

Z.Do‘simov,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor,

S.M.Sariyev,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d. (DSc), dotsent,

A.D.O‘razboyev,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b.,
filol.f.d. (DSc), professor (v.b.).

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugun jahon tilshunosligi oldidagi dolzarb muammolardan biri sifatida atoqli otlarni, jumladan, toponimlarni yangi yo‘nalishlar, xususan, funksional sintaksis nuqtayi nazardan qiyosiy tadqiq qilish masalasi olimlarning doimiy e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Til bu insonning butun borligi va borlig‘i – turmushi, madaniy, ma‘naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aql-u tafakkuri, estetik olami, o‘tmishi, buguni va istiqbolini gavdalantiradigan musaffo oynadir. Bu oynaga qarab turib, xalqning mentalitetini, etiketini, etnik urf-odatlarini, uning o‘zigagina xos xususiyatlarini bilib olish mumkin. Qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar tizimida toponimlarni qiyosiy-funksional tadqiq qilish zaruratining mavjudligi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida dunyoning lisoniy tasviri va ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish ilmiy izlanishlar istiqbolini yaratadi. Shuningdek, toponimlar ifodalagan sintaktik birliklarning chog‘ishtirma tahlili ingliz va o‘zbek tillari tizimida toponimlar anglatgan sintaksemalarni idrok etish va uning nutqiy faoliyatda voqelanish darajasini o‘rganish tipologik umumiylik va xususiylikni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, toponimlarga xos hodisalarning funksional samaradorligi, diskursiv talqini hamda sintaktik sathda namoyon bo‘lish mohiyati bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etish tamoyillari turli tillarda qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganilmagan. Bu, o‘z navbatida, mazkur mavzuni kompleks tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligida ham toponimlarni o‘rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, ularning gap tarkibidagi sintaktik semantikasi tadqiq qilingan ishlar yetarlicha emas. Xususan, o‘zbek tili toponimlarini boshqa tillar bilan qiyoslab o‘rganish, sintaktik sathda toponimlarning gap tarkibida sintaktik aloqalarini aniqlashda yangicha tahlil usullaridan foydalanib, ya‘ni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish ehtiyoji mavjud. Mazkur tadqiqotda toponimlarning gap tarkibidagi sintaktik o‘rni va sintaktik belgilari sintagmatik planda tasniflanadi va aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilari paradigmaticasi qiyosiy chog‘ishtirma yo‘nalishda o‘rganiladi. Bu esa mavzu bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlar ko‘lamini yangicha qarashlar va lingvistik yondashuvlar bilan boyitadi. “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini Respublikamiz ta‘lim muassasalariga joriy etish, ya‘ni o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ vazifasining ijrosini ta‘minlashda shunday ko‘lamdagi qiyosiy izlanishlar natijalari yuqori samara beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillardagi beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439)

oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida onomastika, xususan, toponimlar masalasini chuqur o‘rgangan quyidagi olimlarning ilmiy asarlariga murojaat qilindi:

Yevropa tilshunoslaridan K.A.Kameron, P.X.Reni, A.Rum, A.D.Mils, K.Brigs, M.Geling, A.Koul, R.Jons¹ Buyuk Britaniya toponimlarini tadqiq etishgan bo‘lsa, D.A.Alderman, K.A.Baka, V.M.Beukamp, G.R.Styuartlar² Amerika joy nomlari bo‘yicha izlanishlar olib borgan.

Rus tilshunoslaridan N.N.Boldirev, Y.V.Chistyakova, T.V.Xveskolar³ ingliz toponimlari; V.D.Bondaletov, N.D.Golev, T.N.Dmitriyeva, A.K.Matveyev, A.S.Sherbaklar⁴ esa rus toponimlarini tadqiq qilishgan.

¹Cameron K.A Dictionary of British place names. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 105 p; Reany P.H. The Origin of English Placenames. – London: Routledge and Kegan Paul, 2006. – 235 p; Room A. Nicknames of Places: Origins And Meanings of the Alternate And Secondary, Sobriquets, Titles, Epithets And Slogans for 4600 Places Worldwide. – Jefferson: McFarland & Company, Inc., Publishers, 2006. – 365 p; Mills A.D. Oxford Dictionary of British Place Names. – Oxford, 2003. – 1184 p; Briggs K. Maps of English place-name element distribution. URL:http://keithbriggs.info/English_placename_element_distribution.html; Gelling M., Cole A. The Landscape of Place-Names. – Stamford: Paul Watkins, 2000; Jones R., Semple S. Sense of Place in Anglo-Saxon England. – Donington: Shaun Tyas. – 2012. – 380 p.

² Alderman D.A. Street fit for a King: naming places and commemoration in the American South // Professional Geographer. – 2000. – №52. – P. 672-684; Baca K.A. Native American Place Names in Mississippi. – Jackson: University Press of Mississippi, 2007. – 169 p; Beauchamp W.M. Aboriginal Place Names of New York. – Albany: New York State Education Department, 1907. – 333 p; Stewart G.R. A Concise and Selective Dictionary for the Continental United States of America. – New York, Oxford: Oxford University Press, 1970. – 550 p.

³ Болдырев Н.Н., Чистякова Е.В. Оценочный потенциал ландшафтной лексики современного английского языка // Вестник Тамбовского университета. – 2012. – №7. – С. 22-27; Хвеско Т. В. Вопросы ономастики. 2008, №6. – С. 177; Хвеско Т. В. Дихотомия апеллятив / онома в языке и речи (на материале русского и английского языков). Монография. – Тюмен: Сити-пресс, 2007. – 192 с.

⁴ Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Наука, 1983. – 224 с; Голев Н.Д. О некоторых особенностях принципов номинации в ономастической и апеллятивной лексике (на материале микропонимии Алтайского края) // Языки и топонимия Алтая. – Барнаул Изд-во АГУ, 1979. – С. 72-77; Дмитриева Т.Н. Топонимия бассейна реки Казым: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ижевск, 2006. – 16 с; Матвеев А.К. Образное народное видение и проблемы ономонологической и этимологической интерпретации топонимов

S.Qorayev o‘zining “Toponimika” asari bilan yurtimizda ushbu yo‘nalishning keng rivojlanishiga tamal toshini qo‘yib berganligini alohida e‘tirof etish lozim. Bu sohada shu paytgacha bir qator ishlar maydonga kelgan. E.Begmatov, Z.Do‘simov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, D.Yuldashev¹kabi olimlarning monografik tadqiqotlari va ilmiy faoliyatida atoqli otlarning ayrim tomonlari o‘rganilgan.

Yuqoridagi olimlar toponimlarga turli nuqtayi nazardan yondashganlar va ularni bir necha tamoyillar asosida tasniflaganlar. Xususan, toponimlarning lingvokulturologik, kognitiv, etimologik, sotsiolingvistik, funksional va semantik kabi aspektlari farqlanadi. Jumladan, A.V.Urazmetova toponimlarning ikkilamchi nomlanishini ta’kidlaydi va bunda olima “tasviriy ifoda asosida berilgan joy nomlarini ikkinchi darajali toponimlar” guruhiga kiritadi². Yosh tadqiqotchi A.F.Xayitova o‘zining “Principles of Toponyms (Place Names) Classifications” nomli maqolasida toponimlarni umumiy tasniflash tamoyili hali to‘liq ishlab chiqilmaganligini ta’kidlaydi³.

Jahon tilshunosligida sintaktik-semantik tahlil borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Toponimlarni sintaksem tahlil qilishda quyidagi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlariga murojaat qildik:

A.M.Muxin, O.G.Vetrova, M.Y.Maskin, F.I.Pankov, M.N.Usachyova, U.Q.Yusupov, J. Bo‘ronov, U.U.Usmanov, F.M.Usmanov, R.M.Asadov, Sh.Ashurov, M.R.Jolibekova, D.T.Kubeysinova, M.S.Qayumova, A.R.Qalandarov, R.Xabipova va boshqalar til birliklarining sintaktik-semantik ifodasi va qiyosiy tipologik tadqiqot ishlarini amalga oshirgan⁴.

// Вопросы ономастики. – Свердловск: УрГУ, 1977. – №12. – С. 5-20; Щербак А.С. Когнитивные основы региональной ономастики: Монография. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2012. – 319 с.

¹ Begmatov E. Antroponimlar– antropotsentrik tadqiq obyektini // O‘zbek tili va adabiyoti, 2013. –№3. – B. 35; Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti, 2012, 5-son. – B. 86-90; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013; Yuldashev D.T. Atoqli otlarning antroposentrik tadqiqi: Filol. fan. dok. (DSc) dis... – Toshkent, 2021. – B. 129.

² Уразметова А.В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США). – 2016. – С. 56.

³ <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v7i6.1738> “Principles of Toponyms (Place Names) Classifications”

⁴ Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – Санкт – Петербург, 2007. –198 с; Ветрова О.Г. Вокативность как синтаксико-семантический признак // Лингвистические исследования, 1981. Грамматическая и лексическая семантика. АН СССР. Институт языкознания: – Москва, 1981. – С. 44-49; Маскин М.Ю. Кваликативные синтаксемы в конструкциях «существительное + существительное» в современном английском языке // Лингвистические исследования. – Москва, 1986. – С.132-140; Панков Ф.И. Функционально-семантическая категория адвербиальной локативности и система значений пространственных наречий (фрагмент лингводидактической модели русской грамматики). Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. 2010. № 5. – С. 7-31; Усачёва М.Н. Локативные падежи в составе групп с пространственным значением в пермских языках. Автореферат дисс... канд. фил. наук. – Москва, 2012. – 27 с; Юсупов У.К. Теоритические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – 126 с.; Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – Москва: Высшая школа, 1983. – 268 с; Usmonov O‘.U. Gap tahliliga yangicha yondashuv / Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman (SamDChTIning 10 yilligiga bag‘shlanadi). – Samarqand, 2004. – B.105-108; Usmanov F.M. Sintaktiko-semanticheskaya sopostavleniya dvusostavnykh bezglagolnykh predlozheniy (na materiale angliyskogo i uzbekskogo yazykov): Diss... канд. филол. наук. – Самарканд: 2012. – 149 с; Асадов Р.М. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD). diss... avtoref. – Toshkent, 2018. – 53 b; Ashurov Sh.S. Ingliz va o‘zbek tillarida kesim tipologiyasi: Filol. fan. nom. diss... – Samarqand, 2007. – 154 b; Жоллыбекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разносистемных языках (на материале английского и каракалпакского

Yuqoridagi olimlar ingliz tilini rus, o'zbek va boshqa tillar bilan qiyoslab, sintaktik-semantik tadqiq etgan. Xususan, N.J.Sulaymanova ingliz va o'zbek tillarida lokativlik kategoriyasini qiyosiy-funksional tahlil asosida umumiy o'rgangan¹. Ammo u aynan toponimlarga alohida to'xtalmagan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, millat madaniyatining ko'zgusi bo'lgan toponimlarning tabiati, ularning funksional-kommunikativ xususiyatlari har ikkala qardosh bo'lmagan til misolida to'liq tavsiflanmaganligining guvohi bo'lamiz. Mazkur tadqiqot toponimlarining sintaktik sathda semantik voqelanishi, sintaktik vazifalari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda antroponim, zoonim, fitonim, teonim kabilarga asoslangan joy nomlarining gap tarkibidagi sintaktik o'rni, sintaktik belgilarining sintagmatik tabiati va ular vositasida ifodalangan sintaksemlar paradigmikasi qiyosiy-chog'ishtirma jihatdan komponentlarga va sintaksemlarga ajratib tahlil qilish orqali o'rganildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida o'rganilayotgan "Gapning tashqi va ichki qurilmasi muammolari va ularning qiyosiy tipologiyada tutgan o'rni" mavzusidagi innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari gap qurilmalarida toponimlarning sintaktik maqomini aniqlash va ularni tillararo qiyosiy tahlil qilib, ular ifodalagan sintaksemlarni tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida joy nomlari nominatsiya tamoyillarining umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash hamda ikkala til toponimlari tarkibining qiyosiy-antroposentrik tahlilini amalga oshirish;

gap tarkibida toponimlarning sintaktik tuzilmalari sintaktik birliklarning gapdagi boshqa birliklar bilan sintaktik aloqalari hamda ularning differensial sintaktik belgilarini yunksion va komponent modellar yordamida izohlash;

ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida toponimlar ifodalovchi unsurlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini o'zaro chog'ishtirib tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillari tizimida toponimlar bilan ifodalangan sintaktik birliklarni sintaktik o'rni va semantik xususiyatlariga ko'ra farqlash;

chog'ishtirilayotgan tillarda lokativlik semantikasini voqelantirishda toponimlarning til tizimi lug'ati va grammatik sathlariga dahldorlik imkoniyatlari bilan birgalikda nutqiy mulohaza muhiti bilan bog'liqligini aniqlash.

языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Нукус, 2008. – 156 с; Кубейсинова Д.Т. Синтаксико-семантические особенности личных местоимений в структуре предложений современного английского языка: Дисс... канд. филол. наук. – Нукус, 2008. – 151 с; Qayumova M.S. Ingliz va o'zbek tillarida negativlik kategoriyasining sintaksemlar tadqiqi: Filol. fan. nom. diss.... – Samarqand, 2010. – 156 b; Qalandarov A.R. Ingliz va o'zbek tillarida komparativlik kategoriyasi ifodalanishining sintaktik-semantik xususiyatlari: Fil. fanlari bo'yicha falsafa doktori ... diss. – Toshkent, 2019. – 154 b; Xabipova R.A. Ingliz va qoraqalpoq tillarida instrumental sintaksemlar va ularning variantlari: Filol. fan. dok. (PhD) diss... avtoref. – Nukus, 2020. – 56 b;

¹ Sulaymonova N.J. Lokativlik kategoriyasining sintaktik-semantik va deyktik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss... – Toshkent, 2018. – 153 b.

Tadqiqotning obyekti sifatida A.Muxtor, A.Qorjavov, Z.M.Bobur, P.Qodirov, U.Ro‘ziyev, Shuhrat, A.Christie, Ch.Templeton, D.Koontz, P.Cornwell, R.Goddard kabi o‘zbek va ingliz yozuvchilarining asarlaridagi hamda vaqtli matbuot materiallaridagi ingliz va o‘zbek tillariga oid gaplar tarkibida ishtirok etgan toponimlarning sintaktik-semantik maydoni olingan.

Tadqiqotning predmetini gaplar tarkibidagi toponimlar ifodalagan sintaksemalarning chog‘ishtirma tahlili va tavsifi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda distributiv, transformatsiya hamda komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, shuningdek, qiyosiy-chog‘ishtirma tavsif va statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida toponimlarning tarixiy taraqqiyoti, leksik-semantik turlari o‘rganilib, ularning nominatsiya tamoyillaridagi umumiy va xususiy jihatlari asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillari toponimlari tarkibiga ko‘ra qiyosiy-antroposentrik tahlil qilib, ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek islomiy toponimlari hanuzgacha biror tadqiqot obyekti bo‘lmaganligi aniqlangan;

gap tarkibida toponimlarning yadro va tobe komponentlar o‘rnida kelib gapdagi boshqa birliklar bilan sintaktik aloqalari hamda ularning differensial sintaktik belgilari yunksion va komponent modellar yordamida dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillariga oid gaplar tarkibida toponimlar bilan ifodalangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilari o‘zaro chog‘ishtirma tahlil qilinib, ularning allamorflik va izomorflik xususiyatlari isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillari tizimida toponimlar bilan ifodalangan sintaktik birliklar sintaktik o‘rni va semantik xususiyatlariga ko‘ra farqlanib, boshqa sintaksemalar bilan bog‘lanish imkoniyatlari aniqlangan va natijalarini aks ettiruvchi jadvallar yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillar tizimida toponimlarning qiyosiy-funksional tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar hamda ishda foydalanilgan lisoniy materiallar – sintaktik tizimida toponimlar anglatgan sintaksemalarning vazifaviy va semantik belgilari tahlili qiyosiy tilshunoslik, onomastika, xususan, toponimika asoslari fanlarini yangi ilmiy nazariy tushunchalar bilan boyitishi, ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlarni tahlil qilishdagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishiga xizmat qilishi asoslangan;

toponimlar nominatsiyasining tadqiq etilishi grammatik norma qoidalaridan amaliyotda foydalanish hamda ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganuvchi talabalarga gapning noan‘anaviy tahlilini o‘rgatish va o‘rganish yuzasidan qiyosiy tilshunoslik fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilishda manba bo‘la olishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tasniflanishi, aniq zamonaviy lingvistik metodlar orqali tahlil qilishga asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, badiiy asarlardan misollar yig‘ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o‘zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari toponimlar ishtirok etgan gap qurilmalarida sintaktik birliklar ma’lum lingvistik metodlar asosida chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilingan holda ulardagi izomorflik va allomorflik xususiyatlari yoritib berilganligi, aniqlangan sintaktik aloqalar asosida sintagmatik yo‘nalishda sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari, paradigmatic yo‘nalishda esa, ularning differensial sintaktik-semantik belgilarini tadqiq etish hamda ularni qiyoslash lingvokulturologiya va sintaktik tipologiyaning muhim bir aspekti ekanligi ko‘rsatilganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati lingvokulturologiya, nazariy, amaliy va qiyosiy-tipologik grammatikalarga doir darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratishda; talabalar uchun sintaktik tipologiyadan nazariy ma’lumotlar berish hamda magistrantlar uchun qiyosiy tipologiyaning dolzarb muammolari, sistem tilshunoslik, toponimika, joy nomlari tarixi bo‘yicha maxsus tanlov kurslari o‘qish, uslubiy tavsifanomalalar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari tizimida toponimlarning qiyosiy-funksional tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

gap tarkibida toponimlarning yadro va tobe komponentlar o‘rnida kelib gapdagi boshqa birliklar bilan sintaktik aloqalari hamda ularning differensial sintaktik belgilari yunksion va komponent belgilar yordamida izohlanganligiga doir xulosalardan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2017–2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tili yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 28-noyabr 2022-yildagi 348-son ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan takliflar loyiha doirasida tayyorlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning sifatini oshirishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida toponimlar bilan ifodalangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarining allomorflik va izomorflik xususiyatlari dalillanganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 “Hozirgi Qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” (2012–2016) mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 28-noyabr 2022-yildagi 482/1-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ishlab chiqilgan xulosalar loyiha doirasida tayyorlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning sifatini oshirishga xizmat qilgan;

toponimlar ifodalagan sintaktik birliklarning chog‘ishtirma tahlili, ingliz va o‘zbek tillari tizimida toponimlar anglatgan sintaksemalarni idrok etish va uni nutqiy faoliyatda rivojlanish darajasini o‘rganish borasidagi takliflardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasida “Assalom Xorazm”, “Milliy totuvlik”, “Adabiy

muhit”, “Tilimizni o‘rganamiz”, “Ma‘rifatnoma”, “Najot bilimda” kabi ko‘rsatuv va dasturlarda foydalanilgan (Xorazm viloyati tele-radiokompaniyasining 13-dekabr 2022-yildagi 3024-son ma‘lumotnomasi). Natijada bu takliflar Xorazm telekanalida namoyish qilinadigan teleko‘rsatuvlarni tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

dissertatsiya ilmiy natijalari va materiallaridan Erasmus + dasturining 585845-YeRR-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHT-JP “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities: CLASS” grant loyihasida foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 14 dekabr 2022 yildagi 06-282/13-son ma‘lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada keltirilgan an‘anaviy tilshunoslik nazariyalari, qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslikning asosiy tushuncha va tamoyillari hamda tahlil metodlari, zamonaviy tilshunoslikning paradigma va tamoyillari asosida qiyosiy tahlil etish, matnda grammatik va leksik-semantik vositalari derivatsion aspektining nazariy hamda amaliy asoslaridan loyiha doirasida professor o‘qituvchilar uchun yaratilgan va tadqiq qilingan “Qardosh xalqlar uchun hamkor dasturlar” kursini yaratishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va qisqartmalar izohidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qardosh bo‘lmagan tillar tizimida toponimlarni yuzaga keltiruvchi omillar”** deb nomlanib, toponimlar haqida umumiy tushunchalar va ularning tasniflanishi, ingliz va o‘zbek tillarida joy nomlari nominatsiya tamoyillarining umumiy va xususiy jihatlari, ingliz va o‘zbek tillari toponimlari tarkibining qiyosiy-antroposentrik tahlili hamda toponimlarni qiyosiy-funksional tadqiq etishda foydalanilgan lingvistik metodlar masalalariga bag‘ishlangan.

Tabiat insonga in'om qilgan mo'jizakor, nodir ne'mat bo'lgan tilga, N.Mahmudov qayd etganidek, fikrlash uchun kerak bo'ladigan shunchaki jo'n belgilar tizimi, majmui deb qarash, unga faqat hissiz, ruhiyatsiz vosita deb yondashish o'rinli emas¹. Shu bois bugungi kunda tilshunosligimiz oldida toponimlarning inson hayotida tutgan o'rni, uning inson tafakkuridagi alohida maqomi, bu tip birliklarning o'ziga xos "missiya"sini tizimli o'rganish masalasi turibdi.

Joy nomlarini o'rganish geografiya, tarix va tilshunoslikning obyekti bo'la oladi. Mazkur yo'nalishlardan aynan tilshunoslik toponimlarni keng va chuqur tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Tabiatdagi joy nomlari geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni o'rganadigan alohida toponimika fani mavjud. Toponimika yunoncha topos – joy, onoma (yoki onima) – nom so'zlaridan tarkib topgan². Joylarning turlariga ko'ra toponimiya ham bir necha turlarga ajratiladi, jumladan, gidronimiya, oronimiya, polinimiya, oykonimiya kabilar farqlanadi.

Toponimlarni o'rganish, ularning tarixiy va etnografik rivojlanish xususiyatlarini tadqiqot jarayonida ochib berish, tasniflash, tarkibiy qismlarini aniqlash muhim vazifalar sanaladi. Toponimlarni semantik tasniflash ularning atalish motivlariga asoslanadi.

O'zbek toponimlarining atalish motivlari Z.Do'simov tomonidan o'z vaqtida tasniflangan³. Qizig'i, A.Urazmetova tomonidan Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari hududidagi 35000 dan ortiq joy nomlari tahlili asosida amalga oshirgan tasnifi ham olim tomonidan taqdim etilgan xulosalarga juda yaqin. Buni har ikkala xalq tafakkurida ibtidodan saqlanib kelayotgan umumiy fikrlash tarzi, til materiallari hamda tafakkur tarzidagi umumiyliklar, shu bilan birga o'ziga xoslik sifatida qabul qilishimiz mumkin. Semantika nuqtayi nazaridan ingliz joy nomlarida toponimga asos bo'lgan toponimik leksika, A.Urazmetova nazdida, motivatsion belgilaridan qat'iy nazar 14 ta guruhga ajratiladi⁴.

1. *Landshaft toponimlar* – joyning landshaft va relyefining o'ziga xosliklarini ifodalovchi toponimlar: fransuzcha "ko'k tog'" ma'nosini beruvchi *Vermont* va turli xil obyektlarni bildiruvchi *Wixon Valley, Belle Plain, The Lowlands, Olatov, Qoratog', Ko'hak, Talisafed* kabi toponimlar.

2. Makon anglatuvchi toponimlar – biror obyektning joylashuv o'rniga ishora qiluvchi toponimlar. Dunyo tomonlari (*Southport, Northwood*), masofa (*Far Hill, Distant Island*), yaqinlikni (*Close Lake, Near Islands*), qarama-qarshilikni (*Opposite Creek, Contrary Brook*) va boshqa makonlarni anglatuvchi toponimlar. O'zbek toponimiyasida dunyo tomonlari ifodasini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: a) aslida apellyativi tomon bildirmaydigan *oq, qora, ko'k* koloronimlari hamda *past, quyi, yuqori* kabi so'zlar konnotatsiyasi orqali ifodalash; b) bevosita

¹ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti, 2012, 5-son. – B. 88.

² Қораев С. Топонимика. – Тошкент, 2006. – Б. 12.

³ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 14.

⁴ Уразметова А.В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США). – 2016. – С. 92.

tomon anglatuvchi *qibla, orqa, kungay, kunbotar, kunchiqar* komponentlari bilan ifodalash: *Orqavul, Kunchig‘arbog‘*.

3. Iqlim sharoiti hamda tabiiy holatlarni bildiruvchi toponimlarga *Hot Air Canyon, Cold Bay, Snowy Creek, Sunshine Cove, Hurricane Bayou, Tornado Canyon, Qushqo‘nmas, Borsakelmas, Qaynarbuloq* kabilar misol bo‘ladi. Ko‘rinadiki, o‘zbek toponimlarida bu holat ingliz toponimlariga nisbatan badiiy bo‘yoqdor va obrazli fikrlash orqali shakllangan.

4. *Antropotoponimlar* – kishi ismlari asosida vujudga kelgan joy nomlari. Har ikkala xalq toponimiyasida ushbu guruhga mansub nomlar ko‘pchilikni tashkil qilsa ham, ularning yuzaga kelish sabablari ayrim hollarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, ingliz antropotoponimlarining bir qismi qirollar, lordlar ismlari bilan bog‘liq: *Georgia* – Angliya qiroli Georg sharafiga, *Maryland* – Karl I ning xotini Genrietti-Mari sharafiga va hokazo. O‘zbek toponimlari ichida katta jug‘rofiy ko‘lamdagi joylarning shohlar yoki amirlar nomi bilan atalishi deyarli uchramaydi. *Amir Temur, Ulug‘bek, Abdullaxon, Sherg‘ozixon, Sherdor, Ko‘kaldosh* kabi ko‘plab hukmdorlar va yuqori mansab egalari nomlari bilan atalgan madrasa, xonaqoh, ziyoratgohlarni uchratamiz.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida 24 okrug Franklin – *Franklin County* nomi bilan atalishini qayd etish lozim. Amerika Qo‘shma Shtatlarida prezidentlar nomi bilan bog‘liq *Washington, Jimmy Carter Regional Airport* kabi juda ko‘plab toponimlarni uchratish mumkin. O‘zbek toponimiyasida bu tamoyil o‘z ibtidosida, deyish mumkin. Masalan, *Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti*.

Shunday antropotoponimlar mavjudki, ular ayni paytda haqli ravishda bir necha guruhga mansub sanaladi. Masalan, agionimlar¹ asosidagi toponimlar (*Bury St Edmunds, Saint Matthews*) diniy toponimlar sirasida qayd etiladi. Ular ingliz tilida *the name of holy man*² termini bilan berilsa ham, rus filologiyasida uning qamrov doirasi ancha keng³. O‘zbek agionimlari hanuzgacha ma‘lum bir tizimga solinmagan. Lekin ularning xalqimiz tarixi, ma‘naviyati bilan bog‘liq ravishda faqatgina ziyoratgoh yoki qabristonlar emas, turli tip obyektlar nomlari sifatida uchrashi e‘tiborli. Masalan, *Buvayda*⁴, *Shohimardon* kabi ko‘plab madaniy obyektlar nomlari shular jumlasidandir.

Ingliz toponimlarining bir qismi turli sabablar bilan qo‘yilgan oddiy kishilar nomlari bilan aloqador bo‘lib chiqadi. Masalan, Amerikada ko‘plab uchraydigan *Johnson* toponimi qator sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan. Tadqiqotchilar britan geografi A.Mills tuzgan lug‘at⁵da kishi nomlari asosli 3527 toponimlarning 500 tasi familiyalardan hosil qilinganini aniqlaganlar. O‘zbek tilida birgina agionimlar

¹ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии/ Отв. ред. А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1978. – 198 с.; Живов В.М. Святост. Краткий словарь агнографических терминов. – М. 1994. – 112 с.; Бугаева И.В. Агионимы в ономастическом пространстве русского языка // <http://www.portal-slovo.ru>

² Лебедев В.Ю., Прилуцкий А.М. Имя святого и его семиотическая специфика // Вестник ТвГУ. Серия Философия. 2017, №2. – С. 107.

³ Бугаева И.В. Агионимы в ономастическом пространстве русского языка // <http://www.portal-slovo.ru>

⁴ Abdulahatov N., Rahmonov A., Ahmedov M. Buvayda ziyoratgohlari (“Bibi Ubayda yoxud Safed bulon qissalari” asosida) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B. 11.; Хазиева Г. С. Агионим Хызыр-Иляс в локальных культурных традициях татар / Г.С.Хазиева // Вопросы ономастики. 2020. – Т. 17. – №3. – С. 318.

⁵ Mills A. D. Oxford Dictionary of British Place Names. – Oxford, 2003. – 1184 p.

misolida ko‘radigan bo‘lsak, *Buvayda, Anbar ona, Bibi mushkulkushod, Bibi Hojar ona* ayollar nomi bilan bog‘liq sanoqli obyektlar chiqadi. Ayollar “ulush”i neotoponimlarda nisbatan ko‘paygani seziladi: *Xadicha Sulaymonova ko‘chasi, Krupskaya ko‘chasi*.

5. *Etnotoponimlar* – etnonimlar asosidagi toponimlar: *Essex, Cornwall, Middlesex, Munster, Norfolk, Normanton*. Ba‘zan etnotoponimlar tarixda shunday elat, millat, qabilalar yashagani haqida ma‘lumot beruvchi yagona manba bo‘lib qoladi. O‘zbek etnotoponimlari masalasi bir qadar puxta o‘rganilgan¹. Haqiqatan, bugungi avlod *Do‘rman, Mang‘it, Qovchin* kabi toponimlarning etnonim asosida ekanini qisman bilsa ham, *Bo‘yrachi, Pichoqchi* toponimlari urug‘ nomlari² asosida vujudga kelganini tasavvur qila olmaydilar. X.Doniyorov qabila va urug‘ nomlari bilan bevosita aloqasi bo‘lgan 300dan ortiq joy nomlari borligini qayd etgan³.

6. Insonlarning kasb-hunari, mashg‘ulot turlarini bildiruvchi toponimlar: *Hunter Place, Fisher Grove, Ohangaron tumani, Angren shahri* G.F.Sattarov fikricha, kishilardagi kasb-hunar, ijtimoiy kelib chiqish kabilar bilan bog‘liq toponimlar jamoaviy-hududiy xarakterga ega⁴.

7. Ishlab chiqarish hamda foydali qazilmalar bilan bog‘liq toponimlar: *Copper Run, Lead Creek Hollow, Mining Hill, Kumushkon, Zarqaynar, Gazli* toponimlari mazkur guruhga mansubdir.

8. Insonning ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liq toponimlar: *Dukes Pond, Marquis Hills, Baron Creek, Islom xo‘ja minori, Avaz duynak, Nurullaboy, To‘xtaboyvachcha, Ko‘kaldosh, Yalangto‘shbiy ko‘chasi* va hokazo⁵.

9. *Inson tana a‘zolari bilan bog‘liq toponimlar*. Ingliz toponimlarida inson tana a‘zolarini anglatuvchi *eye, hand, foot, flat, nose* apellyativlari tarkibli *The Forehead, The Tongue, Tooth Rock, The Jaw* cho‘qqilari, *Red Mouth Creek* daryosi, *Big Mouth Canyon* va *Long Arm Hollow* vodiylari nomlari mavjud. O‘zbek toponimiyasida ham inson tana a‘zolari bilan bog‘liq toponimlar mavjud bo‘lsa ham, ingliz tilidagilardan farqlanadi. Jumladan, o‘zbek toponimiyasida *bosh, oyoq, og‘iz* birliklari uchrasa ham, *ko‘z, jag‘, til, tish* birliklari bilan bog‘liq joy nomlari deyarli uchramaydi. Masalan, *Yuqorido‘rman, O‘rtado‘rman, Oyoqdo‘rman* (bu toponim tarkibidagi “oyoq” qismi ham bevosita inson tana a‘zosi sifatida tushunilmaydi) joy nomlari shakllangan.

10. *Diniy tushunchalarga asoslanuvchi toponimlar* – din bilan aloqador toponimlarning o‘zi bir necha qismga ajraladi: 1) xristianlik (masihiylik), islom, buddizm, yahudiylik kabi dinlarga aloqador nomlar bo‘lib, asosan, cherkov, o‘quv muassasalari, ba‘zan aholi punktlari nomlarida uchraydi; 2) diniy bayramlar; 3) agionimlar; 4) diniy muassasalar; 5) cherkov xodimlari rutbalari nomi; 6)

¹ Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 1999. – Б. 5-13.

² Қошғарий М. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.186.

³ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 96 б.

⁴ Сатторов Г.Ф. Лексико-семантические и тематические группы и разряды татарских лично-индивидуальных и семейно-родовых прозвищ // Советская тюркология. – №3, 1977. – С. 29.

⁵ Xudoyberganov K. Nurullaboy majmuasi. – Urganch: Quvanchbek-Mashhura, 2018. – B. 20.

“Injil”dagi nomlar asosidagi toponimlar; 7) maqbaralar, ziyoratgohlar; 8) jannat tushunchasi asosidagi nomlar; 9) do‘zax tushunchasi asosidagi nomlar.

11. *Mifotoponimlar* – asotirlar bilan bog‘liq toponimlar: *Avalon, Hercules, Achilles, Orpheus, Cadmus, Theseus Lake, Pegasus and Bellerophon Sculpture, Lake Atalanta, Ariadne Island* kabi. O‘zbek toponimiyasida bu tip joy nomlariga *Alvastiko ‘prik* yaxshi misol bo‘la oladi.

12. *Fitotoponimlar* – hudud florasining o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi o‘simlik nomi tarkibli toponimlardir: *Birch Beach* plyaji, *Big Elm Creek, Little Maple River* irmoqlari, *Big Cedar, Alder, Bear Poplar* aholi punktlari; gullar nomi bilan bog‘liq toponimlar: *Aster Lake, Big Lily Lake, Gladiolus Dam, Lavender Canyon, Lupine Mountain, Dandelion Canal*; o‘tlar nomi bilan bog‘liq toponimlar: *Gold Mint, Cinnamon Bay, Plantain Pond, Big Sage Valley, Vanilla Bay* kabi. O‘zbek toponimiyasida: *Qo‘noq, Qaqre, Qaraqan, Andiz, Alma, Arpag‘an, Burchaq, Chigil, Pamug‘* (paxta), *Sarmusaq, Yavshan, Yulg‘un, Qazin* (qayin), *Charun* (chinor), *Yag‘aq* (yong‘oq), *Armut*; hayvon nomlari: *Yag‘an* (fil), *Kish* (suvsar), *Tegin* (olmaxon), *Inak* (sigir), *Bulon* (los), *Sanduvach* (bulbul), *Chabaq* (rus. Kilka), *Qulon* (yovvoyi ot), *Kirpi, Tilku, Quzg‘un, Tavishg‘an, O‘qilon, To‘ng‘iz, Azg‘ir, Azig‘, Taqag‘i* (tovuq), *Qashqaliq* (*qashqaldoq*) va hakozi.

13. *Zootoponimlar* – zoonim asosli toponimlar: *Black Cat* aholi putkti, *Cow Canyon* vodiysi, *Crouching Lion* cho‘qqisi, *Crocodile Lake, Flea Hill, Ant Flat, Spider* aholi punkti, *Caterpillar Draw* vodiysi, *Scorpion Butte* tog‘i, *Mosquito Lake* ko‘li (bu nom AQShning 19 ta shtatida uchrrar ekan).

14. *Tavsiflovchi tarkibiy qismdan tashkil topgan toponimlar* aslida toponimlarning mavzuiy-semantik tasnifi emas, balki tarkibiy jihatiga taalluqlidir.

Masalan: *Round Bay, Oval City, Five Points, Sixmile, Seven Valleys, First Colony, Tenville, Old City, Youngtown, Evening Shade, White Sulphur Springs* kabi. O‘zbek toponimiyasida *Beshbaliq, Panjikent, Dahbed, Chorsu, Oltiariq, Yettisuv, Yassi, To‘rtko‘l* (*to‘rtgul* – kvadrat), *Kattaqo‘rg‘on, Ko‘naqala, Ko‘hna Urganch, Eskiqo‘rg‘on, Sassiako‘l*.

Ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek zootoponimlarida qator umumiyliklar mavjud. O‘zbek toponimlarida *Qo‘yqirilg‘an qal‘a, Burgutqal‘a, Filqa‘la* kabi ayrim qadimiy toponimlar ham mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari aslida zoonim bilan bog‘liq emas. Masalan, *Filqal‘a* tarkibidagi *Fil* komponenti Z.Do‘simov tomonidan mufassal tahlil qilingan¹.

O‘zbek va ingliz toponimlari ijodkorligini o‘zaro qiyoslash natijasida ularda xususiylikdan ko‘ra umumiyliklar ko‘proq ko‘zga tashlanishi inson har qanday ijtimoiy muhitda ham, tabiiy muhitda ham o‘z qiyofasini saqlab qolishga qattiq harakat qilishini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil jarayonida kuzatiladigan xususiyliklar esa, o‘z navbatida, ijtimoiy va tabiiy muhit bu jarayonda ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmasligi mumkin emasligini anglatadi.

Mazkur ishimizda ingliz va o‘zbek tillari matn tarkibida qo‘llanilgan toponimlar ifodalovchi sintaktik birliklarni sintaktik sathda qiyosiy-funksional va sintaksem tahlil qilish bilan cheklanamiz.

¹ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 112 б.

Turli tizimli tillar doirasida qiyosiy tahlil qilish orqali juda ko‘p differensial belgilarni aniqlash mumkin. Ta’kidlash joizki, tipologik nuqtayi nazardan qiyoslash jarayonida differensial belgilarni sistemalashtirishda til sathini bir-biridan chegaralash maqsadga muvofiqdir. Ma’lum til materialini qiyosiy o‘rganishda tadqiqot uchun tanlangan obyektning sintagmatik va paradigmatic jihatdan chegaralash mumkin, ya’ni umumiy til sistemasidan bir qancha quyi sistemalar sintagmatik va paradigmatic chegaralash jarayonida ajratiladi.

Tilshunoslarning gapning tashqi va ichki qurilmasi tushunchasi to‘g‘risidagi fikrlarini o‘rganib chiqib, shunga amin bo‘ldikki, gapning tashqi va ichki qurilmalarini farqlash tamoyillari aniq lingvistik metodlar asosida ishlab chiqilmagan. Hozirgi paytgacha sintaktik mazmun muammolari so‘z shakllari va ularning leksik ma’nolaridan kelib chiqqanligi sababli tadqiqotchilarning fikrlari bir-biriga mos kelmaydi. Ba’zi tilshunoslar leksik ma’noni grammatikaning asosi sifatida tan olishsa¹, boshqalari uni inkor etadilar, uchinchi guruh tadqiqotchilar esa uni lingvistik kategoriya sifatida tan olishmaydi².

Tilshunoslarning bunday fikrlari orasida A.M.Muxinning tashqi va ichki qurilma xususidagi ta’biri bizning diqqatimizni tortdi: “gapning tashqi qurilmasi deganda, uning tarkibini komponentlarga ajratib tahlil qilish tushuniladi... ichki qurilmasi esa mazkur gapning sintaksem tahlili orqali aniqlanadi³”. Demak, A.M.Muxin tamoyiliga ko‘ra aynan bir gap shakli ham ichki, ham tashqi qurilmaga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa biz kabi yosh tadqiqotchilarga gaplarni to‘g‘ri tahlil qilish imkonini beradi. Endi A.M.Muxin ta’rifini kengroq yoritaylik. Gapning tashqi qurilmasini aniqlash uchun unda ishtirok etgan sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalari yunksion modellar yordamida izohlanadi hamda mazkur modellar asosida sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari, ya’ni komponent tarkibi va ularning morfologik xususiyatlari komponent modellar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bob “**Gap tarkibida toponimlarning sintaktik o‘rni**” deb nomlandi va u zamonaviy lingvistik metodlar yordamida ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida toponimlarning sintaktik o‘rnini va sintaktik aloqalarini aniqlashga bag‘ishlandi.

Yadro komponentlar o‘rnida kelgan toponimlar yadro predikativ aloqa asosida sintaktik munosabatga kirishadi. Yadro predikativ aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ular boshqa sintaktik aloqalarga tobe bo‘lmagan holda, o‘zi mustaqil fikrni anglatuvchi gapni tuza oladi hamda u teng huquqqa ega bo‘lgan ikki yadro komponentni o‘zaro bog‘laydi⁴. Demak, yadro predikativ aloqani yunksion modelda ikki tomonga yo‘naltirilgan va ikki tomonlama ko‘rsatkichga ega bo‘lgan (<==>) belgi shaklida beriladi. Shuningdek, mazkur sintaktik aloqa

¹ Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка: Учебник. Изд. 7-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – 424 с.

² Звегинцев В.А. Проблемы значения в современном зарубежном языкознании // Новые в лингвистике, вып. 2. – Москва, 1968. – С. 8-23.; [http://Linguistics.berkeley.edu/~syntax-circle\(syntaxgroup/spr08/Anderson.Pdf/](http://Linguistics.berkeley.edu/~syntax-circle(syntaxgroup/spr08/Anderson.Pdf/).

³ Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – Санкт – Петербург: 2007. –198 с.

⁴ Ashurov Sh.S. Ingliz va o‘zbek tillarida kesim tipologiyasi: Filol. fan. nom. diss... – Samarqand, 2007. – 154 b.


gapning asosiy qurilmasini tashkil etuvchi komponentlar o'rtasida mavjudligi tufayli boshqa sintaktik aloqalardan farqlaydigan xususiyat hisoblanadi. Boshqa sintaktik aloqalar gapning qurilishi jihatidan uning asosiy markazini tashkil eta olmaydi. Chunki yadro predikativ aloqadan tashqari sintaktik aloqalar yadro bo'lmagan aloqa hisoblanadi.

Quyidagi gaplarning tashqi qurilmasini komponent tahlil qilamiz:

1. *The White House was smaller* [P.C., 126].¹

2. *Indian Island was news!* [A.C., 2]²


Mazkur gaplarning ikkalasi ham sodda yig'iq gap bo'lganligi uchun bir xil yunksion va komponent modelga tushadi, biroq ularning morfologik xususiyatlari farq qiladi.

1 2		Yu.M	NP ₁ . NP ₂	K.M
(1) <i>The White House was smaller.</i>				
1 2				
(2) <i>Indian Island was news!</i>				

Bu o'rinda komponent modeldagi belgilar izohini berib o'tishni lozim topdik. NP₁ – gapning egasini, NP₂ – gapning kesimini anglatadi, $\tilde{N}D$ – noyadroviy tobe komponent bo'lib, har qanday ikkinchi darajali bo'lakni ifoda etadi. Ikkinchi darajali bo'laklar boshqa bir bo'lakka tobe hisoblanadi va ular hokim bo'laksiz mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ularni birlashtirgan holda tobe komponent ($\tilde{N}D$), deb atash ancha yengillik yaratadi.

Yuqoridagi gaplarda faqat ega va kesimni aniqlash maqsad qilib qo'yilsa, ularning komponent modellari bir xil bo'lib qoladi. Shu boisdan ularning morfologik ifodalanish tomonlarini ham izohlash zarur. Bunda quyidagi shartli belgilardan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mustaqil so'z turkumlarini bosh harflar, yordamchi so'z turkumlarini kichik harflar yordamida ifodalash mumkin: S – ot; V – fe'l; V_f – fe'lning shaxsli shakli; V_{inf} – fe'lning infinitiv shakli; P_{np} – kishilik olmoshi; P_{nobj} – kishilik olmoshining obyekt kelishik shakli; A – sifat; Adv – ravish; Nu – son; predlog – pr; modal fe'l – m; bog'lama fe'l – c kabilar.

Yuqorida tahlil qilingan misollarning komponent modellarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1 2		Yu.M	<u>NP₁ . NP₂</u>	K.M
(1) <i>The White House was smaller.</i>			S cA	
1 2			<u>NP₁ . NP₂</u>	
(2) <i>Indian Island was news!</i>			S cS	

Gaplar tarkibidagi yadro predikatlanuvchi (NP₁) komponentlar o'rnida kelgan toponimlar Sifat + Ot strukturasi ega bo'lib, 1-gapda rangga asoslangan koloronim, 2-gapda etnotoponim bilan ifodalangan. Har ikkala gapda ham yadro

¹ Patricia Cornwell. *Isle of Dogs*. – New York, The Berkley publishing group, 2001. – 413 p. (keyingi holatlarda qisqartirib, P.C. shaklida beriladi)

² Agatha Christie. *And then there were none*. – New York, The Berkley publishing group, 1991. – 204 p. (keyingi holatlarda qisqartirib, A.C. shaklida beriladi)


predikatlovchi (NP₂) komponentlar murakkab ot-kesim bo‘lib bog‘lama fe‘l (c) birinchi gapda sifat (A), ikkinchi gapda ot (S) bilan birikib kelgan.

Navbatdagi misollarimiz o‘zbek tilidagi badiiy asarlardan to‘plangan bo‘lib, ular asosida biz o‘zbek tili gap qurilmalarida toponimlarning sintaktik pozitsiyasini, xususan, yadro komponentlar o‘rnida kelishini tahlil qilamiz.

1. *Samarqand zebo shaharmi?* [A.Q., 82]¹

2. *Amu go‘zal, ammo sehrgar, jodugar daryo.* [A.M, 154]²


Ushbu 1, 2-gaplarda yadro predikatlanuvchi bo‘lak vazifasida kelgan toponimlar yadro predikatlovchi komponent o‘rnida kelgan sifat + ot shaklidagi sintaktik birliklarga yadro predikativ aloqa asosida bog‘lanib kelgan. Bunday gaplar darak, so‘roq va inkor shakllarda bo‘lishi mumkin. Quyida mazkur gapning komponent tarkibi, sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalari va morfologik ifodalanish xususiyatlarini yunksion va komponent modellar yordamida ochib beramiz:

1) <i>Samarqand zebo shaharmi?</i>			
2) <i>Ozarbayjon – sehrlı o‘lka.</i>			
	Yu.M.	$\frac{NP_1 \cdot \tilde{N}D \cdot NP_2}{S \quad A \quad S}$	K.M.

Keyingi gap tarkibida toponimning xususiyatlarini yoritib beruvchi tobe komponentlar uyushib kelgan. Berilgan gapda tobe komponentlarning koordinativ aloqa asosida bog‘lanib, o‘zaro teng sintaktik munosabatdaligini transformatsiya metodi yordamida isbotlash mumkin:

2) *Amu go‘zal, ammo sehrgar, jodugar daryo* → *Amu go‘zal ... daryo* → *Amu sehrgar daryo* → *Amu jodugar daryo.*

Transformatsiya hosilasidan tobe komponentning har birini hokim komponentga hech qanday leksik va grammatik o‘zgarishsiz, boshqalarini tushirib qoldirib ham bog‘lash imkoni mavjudligi ayon bo‘ldi. Mazkur gapning yunksion va komponent modeli quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

(3) <i>Amu go‘zal, ammo sehrgar, jodugar daryo</i>			
	Yu.M.	$\frac{NP_1 \cdot \underline{IH\tilde{N}D} \cdot \underline{IIH\tilde{N}D} \cdot \underline{IIIH\tilde{N}D} \cdot NP_2}{S \quad A \quad cJA \quad A \quad S}$	K.M.

Bu gapda ega vazifasidagi toponim oddiy daraja kategoriyasidagi bitta asliy sifat, ikkita yasama ot bilan aniqlangan bosh kelishik, birlik son, sanaladigan aniq ot bilan ifodalangan kesimga bog‘lanib kelgan.

Noyadroviy tobe komponentlardan to‘ldiruvchi vazifasida kelgan toponimlarning morfologik xususiyatlarini aniqlaymiz.

3. *His flotilla began to haunt the North Carolina.* [P.C, 165]

4. *Scientists at the United Nations funded Edgeway Station.* [D.K, 8]¹



¹ Qorjavov Azamat. Musofir go‘dak. 1-kitob. – Toshkent: Ijod press nashriyoti, 2019. – 204 b. (keyingi holatlarda qisqartirib A.Q. shaklida beriladi)

² Asqad Muxtor. Chinor. – Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti, 2020. – 432 b. (keyingi holatlarda qisqartirib A.M. shaklida beriladi)

5. *The UK constitutes England, Scotland, Wales and Northern Island.* [P.C., 3]

Ingliz tilida berilgan mazkur gaplar tarkibida toponimlar vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan va hech qanday predloglarsiz ishlatilgan.


Uchinchi gapda *the North Carolina* sintaktik birlik aspekt fe'lli fe'l-kesimning ikkinchi qismi vazifasidagi *to haunt* o'timli fe'li bilan subordinativ aloqa asosida sintaktik munosabatga kirishgan va unga tobe bog'langan. Keyingi gap tarkibida ham tobe bog'lanish kuzatiladi: *Edgeway Station* komponenti *funded* (4) o'timli harakat fe'lga subordinativ aloqa asosida bog'langan. Mazkur gaplarning tashqi qurilmasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

3) <i>His flotilla began to haunt the North Carolina.</i>			
	Yu.M.	$\tilde{N}D \cdot NP_1 \cdot NP_2 \cdot \tilde{N}DP_2 \cdot \tilde{N}D$ Pnp S Vf Vinf S	K.M.
4) <i>Scientists at the United Nations funded Edgeway Station.</i>			
	Yu.M.	$NP_1 \cdot \tilde{N}D \cdot NP_2 \cdot \tilde{N}D$ S prS Vf S	K.M.

Beshinchi gapda vositasiz to'ldiruvchi o'rinda kelgan toponimlar uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar, R.Asadovning ta'kidlashicha, har doim ikki valentli bo'ladi, chunki bunday bo'laklar o'zaro koordinativ aloqa asosida bog'lanadi va birgalikda boshqa bir bosh bo'lak yoki ikkinchi darajali bo'lakka predikativ yoki subordinativ aloqa asosida sintaktik munosabatga kirishadi ². Uyushiq bo'laklarning teng huquqli ekanligini transformatsiya metodining tushirib qoldirish usulidan foydalanib izohlaymiz:

5) *The UK constitutes England, Scotland, Wales and Northern Island* → *The UK constitutes England* → *The UK constitutes Scotland* → *The UK constitutes Wales* → *The UK constitutes Northern Island.*

Transformatsiya hosilasidan ma'lumki, har bir joy nomini ifodalagan sintaktik birlik hech qanday grammatik o'zgarishsiz kesim vazifasidagi *constitutes* komponentiga tobe bog'lana oladi. Mazkur gapning yunksion va komponent modeli quyidagicha bo'ladi:

(5) <i>The UK constitutes England, Scotland, Wales and Northern Island</i>			
	Yu. M	$NP_1 \cdot NP_2 \cdot H\tilde{N}D \cdot H\tilde{N}D \cdot H\tilde{N}D \cdot H\tilde{N}D$ S Vf S S S S	K.M

Ingliz tilida sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelganda toponimlar nisbiy sifat bo'lib, aniqlanmishning o'sha joyga xosligini, oidligini bildiradi:

6. *They ... hoisted the Virginia flag* [P.C., 177].

7. *The moonlight – the soft Atlantic air* [A.C., 58].

Berilgan oltinchi gapda *Virginia* toponimi aniqlovchi vazifasida va u to'ldiruvchi vazifasidagi *flag* komponenti ifodalagan predmetning qayerga xosligini anglatadi. Ushbu birikmaga *Whose flag?* deb emas, balki *What kind of*

¹ Dean Koontz. *Icebound*. – New York, First Ballantine Books edition, 1995. – 408 p. (keyingi vaziyatlarda qisqartirib, D.K. shaklida beriladi)

² Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili: Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD). diss... avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 16.

flag? deb savol beriladi. Yettinchi gapda *Atlantic* toponimi ot-kesim vazifasidagi *air* elementini aniqlab, uning xoslangan makonini ifodalab kelgan, buni transformatsiya metodi vositasida bayon etish mumkin:

7) *The moonlight – the soft Atlantic air* → ... *soft air in the Atlantic* hosilasi *air* komponentining qaysi hududga tegishli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Muhokama qilingan gaplarning komponent va yunksion modellari quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

6. <i>They ... hoisted the Virginia flag. (attribute of object)</i>			
	Yu.M.	$\underline{NP_1} \cdot \underline{NP_2} \cdot \underline{\tilde{N}D} \cdot \underline{\tilde{N}D}$	K.M.
		Pnp Vf S S	
7. <i>The moonlight – the soft Atlantic air (attribute of predicate)</i>			
	Yu.M.	$\underline{NP_1} \cdot \underline{\tilde{N}D} \cdot \underline{\tilde{N}D} \cdot \underline{NP_2}$	K.M.
		S Adj S S	

Toponimlar sifatlovchi aniqlovchi vazifasida to‘ldiruvchi, ega va ot-kesimni aniqlab, ulardan oldin joylashadi, agar aniqlanmishning yana boshqa sifatlovchisi mavjud bo‘lsa, toponim undan keyin keladi, degan xulosaga kelindi.

Quyidagi misollarda toponimlarning hol vazifasida kelishi va gapning boshqa bo‘laklari bilan sintaktik munosabatga kirishi, morfologik shakllarini tahlil qilamiz.

8. *She could get back to New-York. [P.C., 297]*

9. *Roger Breskin had immigrated ... from the United States [D.K, 44]*

10. *The President and Mrs Scott will proceed ... via the Grand Central Parkway. [C.T., 27]¹*

Berilgan 8-9-gaplarning sintaktik qurilishi bir xil, S + V + PLACE (ega+kesim+o‘rin holi) ko‘rinishiga ega, 10-gapda ega uyushib kelganligi uchun oldingilaridan biroz farq qiladi, buni yunksion modelda ko‘rgazmali ravishda aks ettiramiz. Gaplarning komponent tarkibi ham o‘xshash, biroq morfologik ifodalanishi farqlanadi:

Yunksion model	
	8-9-misollar uchun
	10-misol uchun
8) <i>She could get back to New-York</i>	$\underline{NP_1} \cdot \underline{NP_2} \cdot \underline{\tilde{N}D}$ Pnp mVinfAdv prS
9) <i>Roger Breskin had immigrated ... from the United States</i>	$\underline{NP_1} \cdot \underline{NP_2} \cdot \underline{\tilde{N}D}$ S auxVp ₂ prS
10) <i>The President and Mrs Scott will proceed ... via the Grand Central Parkway</i>	$\underline{IHNP_1} \cdot \underline{IIHNP_1} \cdot \underline{NP_2} \cdot \underline{\tilde{N}D}$ S S auxVinf prS

Sakkizinchi gapda *New-York* toponimi to predlogi vositasida *could get back* sintaktik birlikka subordinativ aloqa asosida bog‘langan va bu harakat yo‘nalgan makonni anglatgan. To‘qqizinchi gapda *the United States* komponenti from predlogi yordamida faollashgan va kesim o‘rnida kelgan *had immigrated*

¹ Charles Templeton. The kidnapping of the President. – New York, First Avon Printing, 1975. – 276 p. (keyingi holatlarda qisqartirib, C.T. shaklida beriladi)

harakatining chiqish, uzoqlashish maʼkonini ifodalagan. Keyingi gapda, *the Grand Central Parkway (10)* sintaktik birlik *via* predlogi orqali *will proceed* sintaktik birligiga tobelanib kelgan.

Maʼlumki, oʻzbek tilida toʻldiruvchilar bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanmaydi, vositasiz toʻldiruvchi tushum kelishigidagi ot bilan ifodalanadi. Vositali toʻldiruvchi joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishik shakllari va *bilan, uchun, haqida, orqali* koʻmakchilar vositasida voqelanadi¹. Bu kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilar ingliz tilidagi predloglarga muqobil boʻla oladi.

Ingliz va oʻzbek tillarida toponimlarning toʻldiruvchi oʻrnida kelish holatlarida farqi shundaki, ingliz tilida toponimlar bosh kelishik shaklida kela oladi, oʻzbek tilida esa bosh kelishik shaklidagi toponim ishlatilmaydi. Oʻzbek tilida vositasiz toʻldiruvchi vazifasidagi ot tushum kelishigi qoʻshimchasi tushib qolgan tarzda, yaʼni markersiz ishlatilishi mumkin, biroq bu vazifada toponimlarning markersiz qoʻllanilishini biz toʻplagan faktik misollarda uchratmadik.

Oʻzbek tilida aniqlovchi vazifasida kelgan toponimlar bosh va qaratqich kelishik shakllarida, *-dagi, -day (dek)* affikslarini olgan holda va *-dagi* affiksli vazifadosh koʻmakchilar bilan birikkan holda uchraydi. Oʻzbek tilida egasi tushirilgan gaplar keng qoʻllaniladi, chunki kesim vazifasidagi feʼllarda shaxs-son qoʻshimchalari egaga ishora qila oladi. Bunday gaplarda tiklash transformatsiyasi yordamida ega vazifasidagi komponentlarni tiklash mumkin.

Uchinchi bob **“Qardosh boʻlmagan tillarda toponimlar ifodalagan sintaksemlar paradigmaticasi”** deb nomlanib, unda ikkinchi bobda aniqlangan sintaktik vazifalarda kelgan toponimlarni sintaksemlarga ajratib tahlil qilish, aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini, ularning variantlarini hamda sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemlar bilan birika olish imkoniyatlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Tilshunoslikda gap qurilmasini tahlil qilishda Oʻ.U.Usmonov taʼkidlaganidek, sintaksemlarga ajratib tahlil qilish, aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini, ularning variantlarini hamda sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemlar bilan birika olish imkoniyatlarini aniqlash gapning ichki qurilmasini ochib beradi².

Ushbu fikrga tayangan holda ingliz va oʻzbek tillari gap qurilmasida ishtirok etgan toponimlarni sintaksemlarga ajratib tahlil qilamiz. Toponimlar ot soʻz turkumi doirasida boʻlib, hech qachon protsessuallikni ifodalaganligi uchun kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansial va kvalifikativ semalarni topib, ular qamrovida boʻlgan nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanadi va u belgilarning paradigmatic qatori yoritib beriladi.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi toponimlarning sintaksemlarini aniqlashda badiiy adabiyotlar va davriy matbuotdan toʻplagan misollar tahlil qilinadi. Bunda gap tarkibidagi sintaktik birliklarni komponentlarga ajratishda ham,

¹ Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. Oʻzbek tilining struktural sintaksisi. – Toshkent, 2004. – B. 36; Muxamedova D., Nosirova D. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent, 2014. – B. 84.

² Usmonov Oʻ.U. Gap tahliliga yangicha yondashuv / Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman (SamDChTining 10 yilligiga bagʻishlanadi). – Samarqand, 2004. – B.105-108.

sintaksemlarga ajratishda ham bir xil sintaktik aloqaga asoslanadi va boshqa sintaksemlar bilan birikish imkoniyatlari ochib beriladi.

Ingliz badiiy asarlaridan olingan toponimli misollar tahlil qilinganda kategorial belgilardan substansial va kvalifikativ sintaksemlar doirasida lokativ sintaksema va ularning paradigmatic qatori aniqlandi va taqqoslandi.

1. *On August 15, India will celebrate 75 years of independence. [W.B.]¹*

2. *... the Mount Pleasant mega-henge was built on a grassy upland overlooking the Rivers Frome and Winterborne. [W.B.]*

Berilgan gaplar tarkibida *India* (1), *the Mount Pleasant* (2) sintaktik birliklar yadro predikatlanuvchi komponent, ya'ni ega o'rnida kelib, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallikni ifodalaydi. Gap tarkibidagi komponentlarning nokategorial belgisini aniqlash uchun ular sintaktik munosabatga kirishgan komponentni aniqlashimiz zarur bo'ladi. Ma'lumki, kategorial belgi so'zning lug'atdagi leksik ma'nosi bo'lsa, nokategorial belgi uning gap qurshovida boshqa sintaktik birliklar ta'siri ostida ifodalagan ma'nosi hisoblanadi. Shu jihatdan, tilshunoslikning leksikologiya bo'limi bilan qiyoslaganda, kategorial belgi denotativ ma'no, nokategorial belgi konotativ ma'noga muqobil bo'la oladi, deb fikr bildiramiz. Berilgan gap qurilmalarida yadro predikatlovchi komponentlar *will celebrate* (1), *was built* (2) kategorial belgilardan protsessuallikni, nokategorial aksional (1) va aksional direktiv (2) belgilarni ifodalaydi. Aksional sintaksema bilan bog'langan komponentlar agentivlikni, direktiv sintaksema bilan bog'langan birliklar obyektlikni anglatadi. Demak, gaplar tarkibidagi yadro predikatlanuvchi komponent vazifasidagi toponimlar substansial agentiv – SbAg (1) va substansial obyekt – SbOb (2) sintaksemlarni ifodalaydi:

1) *on August 15, India will celebrate 75 years of independence* – QlfTm . SbAg . PrAc . QlfQun . SbPs;

2) *... the Mount Pleasant ... was built on a grassy upland overlooking the Rivers Frome and Winterborne* – SbOb . PrAcDr . QlfQltExp . PrSt . SbLcAll.

Ingliz tilida yadro ikki karra predikatlanuvchi komponent o'rnida kelgan toponimlar 3 ta sintaksemani ifodalaydi va 3 xil sintaksemani anlatuvchi noyadroviy predikatlovchi sintaktik birlik bilan bog'lanadi (SbStOb ↔ PrStPs, SbStPs ↔ QlfSt, SbObAg ↔ PrAcFn). Kesim vazifasida kelgan toponimlar substansial identifikatlovchi (SbId₂), substansial negativ identifikatsiyalovchi (SbNgId₂) va substansial eksplikativ (SbExp) sintaksemlarni ifodalaydi va ega vazifasidagi substansial identifikatsiyalanuvchi (SbId₁) sintaksema bilan bog'lanishi kuzatildi.

Quyidagi jadvalda ingliz tilida ega (NP₁) o'rnidagi toponimlar ifodalagan sintaksemlar va kesim (NP₂) o'rnidagi sintaksemlar bilan bog'lanish imkoniyatlari yoritilgan.

¹World book (Vol.4). –London, World Book Inc, 1998. (keyingi holatlarda qisqartirib, W.B. shaklida beriladi)

NP ₁ \ NP ₂	PrAc	PrAcDr	PrSt	PrAcCnt	QlfQlt Cmp	SbId ₂	QlfQunId ₂	PrPs
SbAg	+		+	+				
SbOb		+						
SbStOb		+						
SbSt			+					
SbStPs			+					
SbObAg		+						
SbQltCmpOb					+			
SbId ₁						+		
SbQunId ₁							+	
SbExCm								+

O'zbek tilida quyidagi misollarda toponimlar ifodalagan sintaksemalarni tahlil qilamiz:

1. ... *Turkiston to'g'ri yo'lga tushib ololmaydi.* [Sh., 450]¹
2. *Zarbuloq deganlari Telbasoydan balandroqdagi qishloq.* [R.U., 193]²
3. *Shodasoy hamon shovullab yotibdi.* [A.M., 250]
4. *Ugom naqadar go'zal.* [A.M., 214]
5. *Axsi tong uyqusida edi.* [B., 46]³

Ushbu misollarda *Turkiston* (1) toponimi protsessual aksional negativ modal *yo'lga tushib ololmaydi* komponentiga bog'lanib, substansial agentiv; *Zarbuloq* (2) substansial lokativ identifikatsiyalovchi *qishloq* komponentlari bilan bog'lanib, identifikatsiyalanuvchi; *Shodasoy* (3) protsessual aksional stativ deskriptiv *shovullab yotibdi* komponenti bilan bog'lanib, stativlik yuklatilgan agentiv; *Ugom* (4) kvalifikativ kvalitatif *go'zal* bilan bog'lanib, kvalitatiflik yuklatilgan substansial; *Axsi* (5) toponimi protsessual stativ *uyqusida edi* komponenti bilan bog'lanib, stativlik yuklatilgan sintaksemalarni ifodalagan. Gaplar tarkibida tobe komponentlar ham mavjud bo'lib, ular ham komponentlarning nokategorial belgilariga ta'sir qiladi. Gaplarning sintaksemalar modeli quyidagicha bo'ladi:

- 1) ... *Turkiston to'g'ri yo'lga tushib ololmaydi* – SbAg . PrAcNgMd;
- 2) *Zarbuloq deganlari Telbasoydan balandroqdagi qishloq* – SbId₁ . SbLcAbl . QlfLcCmp . SbLcId₂;
- 3) *Shodasoy hamon shovullab yotibdi* – SbStAg . QlfTm . PrAcSt;
- 4) *Ugom naqadar go'zal* – SbQlt . QlfDg . QlfQlt;
- 5) *Axsi tong uyqusida edi* – SbSt . SbTm . PrSt.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilida toponimlar ega (NP₁) vazifasida kelganda 8 ta (SbId₁El, SbAg, SbId₁, SbStCm, SbQlt, SbQun, SbQltCmp, SbSt) nokategorial belgilarga ega bo'ladi, bulardan substansial agentiv va stativlik yuklatilgan substansial sintaksemalar 2 xil sintaksemalar bilan, qolganlari faqat bir

¹ Шуҳрат. Олтин зангламас. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 520 б. (keyingi holatlarda qisqartirib, Sh. shaklida beriladi)

² Ro'ziyev Uyg'un. Atirgul. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 232 б. (keyingi holatlarda qisqartirib, R.U. shaklida beriladi)

³ Бобур 3.М. Бобурнома. – Тошкент, 2002. – 503 б. (keyingi holatlarda qisqartirib, B. shaklida beriladi)

xil sintaksemlar bilan bog‘lanadi. Kesim (NP₂) vazifasida esa toponimlar 4 ta sintaksemani ifodalaydi va ega vazifasidagi 3 xil sintaksema bilan bog‘lanadi. Garchi morfologik ifodalanishiga ko‘ra yadro predikatlanuvchi komponent o‘rnida toponimlar paradigmikasi torroq, ya‘ni ular faqat bosh kelishik shaklida bo‘lishi mumkin bo‘lsa, yadro predikatlovchi komponent o‘rnida buning aksini kuzatamiz: morfologik paradigmikasi kengroq, sintaksemlar soni kamroq.

2-jadval

NP₂ o‘rnidagi toponimlar ifodalagan sintaksemlar va NP₁ o‘rnidagi sintaksemlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari

NP ₂ \ NP ₁	SbId ₁	SbSt	SbId ₁ Add
SbId ₂	+		
SbLcAd		+	
SbLcAbl	+		
SbId ₂ Int			+

Ingliz tilida to‘ldiruvchi vazifasidagi toponimlar substansial kategorial belgi qamrovida, asosan, obyekt, allativ, informativ va komitativ sintaksemlarni ifodalab, olti turdagi sintaksemlar bilan bog‘lanishi kuzatildi. Faktik misollar tahlili natijasida ingliz tili gap qurilmalarida aniqlovchi vazifasida kelgan toponimlar 8 xil sintaksemani ifodalashi va 6 xil sintaksemlar bilan birikishi aniqlandi. Biz faqat o‘zimiz badiiy asarlar va matbuotdan to‘plagan misollar tahlili bilan chegaralandik.

O‘zbek tilida tobe komponentlar xuddi ingliz tilidagi kabi xususiyatlarga ega bo‘lsa ham, gap tarkibida ifodalagan ma‘nolari va bog‘langan sintaksemlari ma‘lum darajada farq qiladi. Ularning o‘xshash va farqli tomonlarini to‘plagan misollar tahlili orqali ochib beramiz.

O‘zbek tilida gidrotoponimlar nomlanishida ko‘proq muayyan hududning yoki o‘sha suv yo‘lining xususiyatlaridan kelib chiqib nomlanadi. Quyidagi misollarda *Zarbuloq*, *Nurbuloq* gidronimlarida buloq suvining tiniqligi, unda quyoshning zarrin nurlari aks etishi asos qilib olingan bo‘lsa, *Telbasoy* gidronimi suvning oqish tarzi, ya‘ni to‘lib-toshib shiddat bilan harakatlanish xususiyatiga asoslangan.

Quyidagi oltinchi gapda *bir qadam* – substansial kvantitativ o‘lchov (Ms – measure) sintaksemani, *orasi* – o‘lchov yuklatilgan substansial, *Zarbuloq bilan Telbasoyning* – substansial lokativ distantiv sintaksemlarni ifodalaydi. Yettinchi gapda *cho‘milib yurgan edik* – protsessual aksional kontinuativ, *Hammamiz* – substansial agentiv kollektiv, *hovuzda* – substansial lokativ adessiv, *Nurbuloqdagi* – substansial lokativ possessiv sintaksemlar o‘z ifodasini topgan.

6) *Zarbuloq bilan Telbasoyning orasi bir qadam* – SbLcDst . SbLcDst . SbMs . QlfQunMs;

7) *Hammamiz Nurbuloqdagi hovuzda cho‘milib yurgan edik* – SbAgClc . SbLcPs . SbLcAd . PrAcCnt;

O‘zbek tilida tobe komponentlar o‘rnida kelgan toponimlar 8 xil sintaksemani ifodalashini va o‘n turdagi sintaksemlar bilan sintaktik munosabatga kirishishini

kuzatdik va boshqa sintaksemlar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda yoritib berdik.

3-jadval

ÑD	SbLc All	SbEl	SbMs	SbLc Ad	SbLc ExIntr	PrAc Dr	SbLc InstId ₁	PrSt	SbOb	PrAc
SbLcExp	+									
SbLcPs		+		+						
SbLcDst			+							
SbExpId ₂							+			
SbExpAd									+	
SbOb						+		+		
SbObLcCm										+
SbCmpEx					+					

Lokativ sintaksema toponimlar ifodalagan sintaksemlar ichida eng ko‘p uchraydi, shuning uchun mazkur sintaksema alohida o‘rganildi.

Lokativlik kategoriyasi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, O.Y.Ivanova lokativlikning so‘z yasash xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, A.A.Abdullina va F.I.Pankovlar¹ funksional-semantik maydonini tadqiq etgan. N.J.Sulaymanova esa lokativlik kategoriyasini ifodalovchi lisoniy unsurlarni ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy tadqiq etib, lokativ sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlagan, lokativ semalarning turlarini tasniflagan².

Ingliz tilida o‘rin holi vazifasida kelgan toponimlar lokativ sintaksemaning subvariantlaridan allativ, ablativ, adessiv, obyekt, terminativ, interior, eksterior, translativ semalarni ifodalab, subordinativ aloqa vositasida aksional va obyekt sintaksemlar bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Masalan:

3. *A student snaps a selfie during a school outing to Ada Park in Bayrampasa, a district of Istanbul. [U.T.]*³

4. *... Stonehenge ... draws millions of visitors to England’s Salisbury Plain [U.T.].*

Uchinchi gapda *to Ada Park* – lokativ allativ va *in Bayrampasa* – lokativ adessiv sintaksemlar subordinativ aloqaga kirishsa, *a district of Istanbul* eksplikativ sintaksemani ifodalaydi va appozitiv aloqaga kirishadi, an’anaviy grammatikalarda ajratilgan izoh bo‘lak vazifasini bajaradi. To‘rtinchi gapda uchta toponim ishtirok etgan bo‘lib, yadro predikatlanuvchi *Stonehenge* komponenti substansial stativlik yuklatilgan sintaksemani ifodalaydi, chunki u protsessual stativ sintaksema (*draws*) bilan sintaktik aloqaga kirishadi. *England’s* komponenti substansial possessiv sintaksemani ifodalaydi va lokativ allativ *to*

¹ Иванова О.Я. Лингвокультурная специфика словообразовательной категории локативности (на материале русского и английского языков). Дис... канд. фил. наук. Ставропол, 2004. – 221с.; Абдуллина А.А. Функционально-семантическое поле локальности в современном русском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Краснодар, 1994. – 17 с.; Панков Ф.И. Функционально-семантическая категория адвербиальной локативности и система значений пространственных наречий (фрагмент лингводидактической модели русской грамматики). Вестник Мос. унив. Сер. 9. Филология. 2010. № 5.–С.7-31

² Sulaymanova N.J. Lokativlik kategoriyasining sintaktik-semantik va deyktik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss... – Toshkent, 2018. – B. 74-77.

³ Uzbekistan Today, 2018, March 22. (keyingi holatlarda qisqartirib, U.T. shaklida beriladi)

Salisbury Plain sintaksema bilan subordinativ aloqa asosida bog‘lanadi. Gaplarning sintaksem modeli quyidagicha:

5. *A student snaps a selfie during a school outing to Ada Park in Bayrampasa, a district of Istanbul* – SbAg . PrAc . PrTm . SbLcAll . SbLcAd . SbLcExp.

6. ... *Stonehenge ... draws millions of visitors to England’s Salisbury Plain* – SbSt . PrSt . QlfQun . SbOb . SbPs . SbLcAll.


O‘zbek tilida toponimlar lokativ adessiv sintaksemani ifodalaganda protsessual aksional direktiv, stativ va stativ ekzistensial sintaksemalar bilan bog‘lanishi kuzatildi.

Quyidagi misolda lokativ adessiv sintaksema (*Chinorqishloqda*) additiv (*ham*) stativ kontinuativ (*hukm surdi*) sintaksemalar bilan bog‘langan va quyidagi sintaksem modelga ega: 8) *Chinorqishloqda ham ... tahlika hukm surdi* – SbLcAdAdd . SbSt . PrStCnt.

To‘plangan faktik misollar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek tilida toponimlar substansial lokativ sintaksema doirasida allativ, ablativ, adessiv, allativ adessiv, translativ, direktiv start, terminativ, kvalitatif komparativ, instrumental sintaksemalarni ifodalaydi va protsessual aksional, stativ, obyekt, ekzistensial, modal, identifikatsiyalovchi sintaksemalar bilan bog‘lanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida toponimlar ifodalagan lokativ sintaksema variantlarining izomorflik va allamorflik xususiyatlarini quyidagicha ko‘rgazmali ifodaladik.

4-jadval



XULOSA

1. Ingliz va o‘zbek toponimlarining tiplari insoniyat tafakkurining qadim qatlamlarini aks ettira oladi. Joylarning turlariga ko‘ra toponimiya gidronimiya, oronimiya, polinimiya, oykonimiya kabi bir necha turlari farqlanadi. Semantika nuqtayi nazaridan ingliz joy nomlarida toponimga asos bo‘lgan apellyativ leksika motivatsion belgilaridan qat’iy nazar 14 ta guruhi aniqlandi.

2. Ingliz antropotoponimlarining katta bir qismi qirollar, lordlar ismlari bilan bog‘liq. O‘zbek toponimlari ichida katta jug‘rofiy ko‘lamdagi joylarning shohlar yoki amirlar nomi bilan atalishi deyarli uchramaydi, aksincha, ko‘plab hukmdorlar va yuqori mansab egalari nomlari bilan atalgan madrasa, ziyoratgohlarni uchraydi. Ingliz masihiy toponimlari tadqiqiga doir qator ishlar amalga oshirilgan, biroq tilshunosligimizda o‘zbek islomiy toponimlari termini hali muomalaga kiritilmagan va terminning mohiyati yuzasidan ko‘lamli ish amalga oshirilmagan.

3. Lingvistik tadqiqotlar olib borishda an’anaviy sintaktik tahlil metodlari talabga to‘liq javob bera olmaganligi uchun komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish hamda gap tarkibidagi sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalarini aniqlashda yunksion modellardan foydalanish, komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini sintaksem tahlilda ochib berish tadqiqotchiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

4. Toponimlarning sintaktik o‘rni o‘rganilganda, ular yadro va tobe komponentlar o‘rnida kela olishi ma‘lum bo‘ldi. Ingliz tilida yadro predikatlanuvchi komponent (ega) va yadro predikatlovchi komponent (kesim) o‘rnida kelgan toponimlar faqat umumiy kelishik shaklida bo‘ladi, ega o‘rnida kelganda ot, sifat, aniq nisbatdagi holat fe‘li, majhul nisbatdagi harakat fe‘li bilan, kesim o‘rnida kelganda ot yoki olmosh bilan yadro predikativ aloqaga kirishadi.

5. O‘zbek tilida yadro predikatlanuvchi komponent o‘rnida kelgan toponimlar nafaqat ot-kesimga, balki fe‘l-kesimga ham bog‘lanib keladi. Shuningdek, toponimlardan yasalgan so‘zlar va toponimlar qatnashgan birikmalar ham ega vazifasida kelishi kuzatiladi. Yadro predikatlovchi komponent o‘rnida kelgan toponimlar bosh, o‘rin-payt, chiqish kelishigi shakllarida kelishi mumkin. Bunda ular ega o‘rnida kelgan ot yoki olmosh bilangina yadro predikativ munosabatga kirisha oladi.

6. Ingliz tilida toponimlar vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelganda predloglarsiz, vositali to‘ldiruvchi vazifasida predlogsiz va predlogli holatda ishlatilishi mumkin. Predlogli to‘ldiruvchi vazifasida, asosan, *for, to, about, on, in* predloglari bilan birikib kela oladi. O‘zbek tilida toponimlar vositasiz to‘ldiruvchi o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasi *-ni* bilan turlanib, vositali to‘ldiruvchi vazifasida jo‘nalish kelishigi shaklida va *bilan, uchun, haqida, orqali* ko‘makchilari bilan birikib keladi.

7. Ingliz tilida toponimlar gapning barcha bo‘laklariga nisbatan predlogsiz va predlogli birikma hosil qilib, quyidagi strukturalar tarkibida aniqlovchi bo‘lib ishtirok etadi: $Nt + N$; $Nt+N = N + of Nt$; $at N + of Nt$; $in N+of Nt + in Nt$; $through Adj + N + of + Adj + Nt$; $in N + from Nt$; $from N + to Nt$; $N + on Nt$. O‘zbek tilida aniqlovchi vazifasida kelgan toponimlar bosh va qaratqich kelishik

shakllarida, *-day(dek)*, *-dagi* affiksini olgan holda va *-dagi* affiksli vazifadosh ko‘makchilar bilan birikkan holda uchraydi, ot va otlashgan so‘zlarga subordinativ aloqa vositasida bog‘lanadi.

8. Ingliz tilida toponimlar hol vazifasida *to, towards, in, on, into, onto, for, between, around, inside, from, via, through, at* predloglari bilan birikadi. O‘zbek tilida toponimlar o‘rin holi, tarz holi va daraja holi vazifalarida uchraydi. Tarz holi vazifasida *-day, -dek* affikslarini olib fe'lga, daraja holi vazifasida shu qo‘shimchalar bilan sifatga tobelanib keladi va bu sifat, o‘z navbatida, otni aniqlaydi. O‘rin holi vazifasida kelgan toponimlar *-ga, -da, -dan* kelishik qo‘shimchalari va shu kelishiklar bilan ma‘nodoshlik hosil qila oladigan *tomon, taraf* ko‘makchilari hamda *bo‘yicha, bo‘ylab, orqali, uzra, yoqalab, o‘rtasida* ko‘makchilari, *-gacha* qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi.

9. Sintaksem tahlil gaplarning ichki qurilmasini ochib beradi va bunda komponentlarning differensial sintaktik-semantik kategorial va nokategorial belgilari aniqlanadi. Yadro komponentlar o‘rnida kelgan toponimlar har ikkala tilda ham substansiallik doirasida lokativ obyekt, stativlik yuklatilgan lokativ, identifikatsiyalanuvchi va identifikatsiyalovchi, eksplikativ, komparativ sintaksemalarni ifodalaydi. Toponimlar ingliz tilida kesim o‘rnida 2 xil, ega o‘rnida 10 xil; o‘zbek tilida ega – 8 xil, kesim – 4 xil sintaksemalarni ifodalaydi.

10. Toponimlar tobe komponentlar o‘rnida kelganda ingliz tilida aniqlovchi vazifasida 8 xil sintaksemani ifodalashi va 6 xil sintaksema bilan birikishi, to‘ldiruvchi vazifasidagi obyekt, allativ, informativ va komitativ kabi 4 xil sintaksemani ifodalashi va 6 xil sintaksema bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida tobe komponentlar o‘rnida kelgan toponimlar sakkiz xil sintaksemani ifodalashini va o‘n turdagi sintaksemalar bilan sintaktik munosabatga kirishadi.

11. Ingliz va o‘zbek tillarida o‘rin holi vazifasida kelgan toponimlar lokativ sintaksemaning subvariantlaridan allativ, ablativ, adessiv, obyekt, terminativ, interior, eksterior, translativ semalarni ifodalab, subordinativ aloqa vositasida aksional va obyekt sintaksemalar bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Bu ikkala tilda ifodalangan sintaksemalarning o‘xshash va farqli tomonlari jadvalda o‘z aksini topgan.

12. Badiiy asarlar va matbuotdan to‘plagan misollar tahliliga ko‘ra ingliz tilida toponimlar 34 ta, o‘zbek tilida 30 ta sintaksemani ifodalaydi va bu sintaksemalarning har bir kichik guruhi alohida tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Zero, toponimlarni o‘rganish millat tarixini o‘rganish demakdir, toponimlar milliy madaniyatning bir bo‘lagidir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНИ ПРИ
УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУМАТОВ РАШИД ЯНГИБАЕВИЧ

**СРАВНИТЕЛЬНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
ТОПОНИМОВ В СИСТЕМЕ НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКОВ (НА
ПРИМЕРАХ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ургенч – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Fil1621.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и на информационно-образовательном портале «Ziynet» www.ziynet.uz.

Научный руководитель:	Усмонов Урол Усмонович, кандидат филологических наук, доцент.
Официальные оппоненты:	Юлдашев Данияр Тахирович, доктор филологических наук, доцент, Мардиев Тулжин Абдухакимович, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) по филологическим наукам при Ургенчском государственном университете «__» _____ в ____ часов 2023 года. Адрес: 220100, город Ургенч, улица Хамида Олимжона, 14. Тел.: (99 862) 224-67-00, электронная почта: fil-ik.urdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (регистрационный номер ____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамида Олимжона, 14. Тел.: (99 862) 224-67-00, электронная почта: fil-ik.urdu.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2021 г.
(Протокол реестра № ____ от «__» _____ 2020 г.).

З.Дусимов,
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор,

С.Сариев,
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент,

А.Урозбоев,
В.и.о. председателя Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня, как одна из актуальных проблем, стоящих перед мировым языкознанием, вопрос сопоставительного исследования собственных имен существительных, в том числе и топонимов, в новых направлениях, в частности, с точки зрения функционального синтаксиса, находится под постоянным вниманием ученых. Язык – это прозрачное зеркало, воплощающее в себе все бытие и существование человека – его быт, культурную, духовную жизнь, этническое и духовное состояние, интеллектуальное мышление, эстетический мир, прошлое, настоящее и будущее. Глядя в это зеркало, можно узнать менталитет, этикет, этнические традиции и обычаи, и уникальные особенности народа. Наличие необходимости сравнительно-функционального исследования топонимов в системе родственных и неродственных языков определяет актуальность темы.

В мировой лингвистике изучение языковых представлений о мире и их лингвистических особенностей создает перспективу для научных исследований. Также, сопоставительный анализ синтаксических единиц, выражаемые топонимами, имеет важное значение для определения типологической общности и специфики, понимания синтаксиса, означаемые топонимами, в системе английского и узбекского языков, изучения уровня его реализации в речевой деятельности. В частности, принципы исследования аспектов, связанных с функциональной эффективностью, дискурсивной интерпретацией и сущностью проявления на синтаксическом уровне топонимических явлений, в разных языках не изучены сопоставительно-типологически. Это, в свою очередь, определяет необходимость всестороннего изучения данной темы.

Хотя в годы независимости в узбекском языкознании проведен ряд работ по изучению топонимов, исследований их синтаксической семантики в предложениях недостаточно. В частности, возникает необходимость сопоставить топонимы узбекского языка с другими языками, определить синтаксические отношения топонимов в предложении на синтаксическом уровне, используя новые методы анализа, то есть проанализировать их, разделив на компоненты и синтаксемы. В данном исследовании синтаксическая позиция и синтаксические признаки топонимов в предложении классифицируются в синтагматическом плане, а парадигматика дифференциальных синтаксико-семантических признаков выделенных компонентов изучается в сравнительно-сопоставительном аспекте. Это обогащает масштаб исследования темы новыми взглядами и лингвистическими подходами. При обеспечении реализации задачи «Исходя из международного опыта, внедрение в образовательные учреждения нашей Республики передовых стандартов высшего образования, т.е. поэтапный переход в систему образования, ориентированной на получение

теоретических знаний в образовательных программах»¹ результаты сопоставительных исследований такого масштаба очень эффективны.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит при реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 “О стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах” от 7 февраля 2017 года, № УП-5847 “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года, а также, в Постановлениях № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018 года и № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” от 19 мая 2021 года, и в других нормативно-правовых документах, косательно данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В качестве теоретической основы исследования были выбраны научные труды следующих ученых, глубоко изучившие вопросы ономастики, в частности топонимов:

Из европейских лингвистов К.А. Камерон, П.Х. Рени, А. Рум, А.Д. Милс, К. Бригс, М. Гелинг, А. Коул, Р. Джонс² исследовали топонимы Великобритании, а Д.А. Алдерман, К.А. Бака, В.М. Беукамп, Г.Р. Стюарт³ ввели свое исследование по топонимов Америки.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года / Халк сузи, 09.10.2019. № 209 (7439)

² Cameron K.A Dictionary of British place names. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 105 p; Reany P.H. The Origin of English Placenames. – London: Routledge and Kegan Paul, 2006. – 235 p; Room A. Nicknames of Places: Origins And Meanings of the Alternate And Secondary, Sobriquets, Titles, Epithets And Slogans for 4600 Places Worldwide. – Jefferson: McFarland & Company, Inc., Publishers, 2006. – 365 p; Mills A.D. Oxford Dictionary of British Place Names. – Oxford, 2003. – 1184 p; Briggs K. Maps of English place-name element distribution. [URL:http://keithbriggs.info/English_placename_element_distribution.html](http://keithbriggs.info/English_placename_element_distribution.html); Gelling M., Cole A. The Landscape of Place-Names. – Stamford: Paul Watkins, 2000; Jones R., Semple S. Sense of Place in Anglo-Saxon England. – Donington: Shaun Tyas. – 2012. – 380 p.

³ Alderman D.A. street fit for a King: naming places and commemoration in the American South // Professional Geographer. – 2000. – №52. – P. 672-684; Baca K.A. Native American Place Names in Mississippi. – Jackson: University Press of Mississippi, 2007. – 169 p; Beauchamp W.M. Aboriginal Place Names of New York. – Albany: New York State Education Department, 1907. – 333 p; Stewart G.R. A Concise and Selective Dictionary for the Continental United States of America. – New York, Oxford: Oxford University Press, 1970. – 550 p.

Из русских лингвистов Н.Н. Болдырев, Е.В. Чистякова, Т.В. Хвеско¹ исследовали английских топонимов, а В.Д. Бондалетов, Н.Д. Голев, Т.Н. Дмитриева, А.К. Матвеев, А.С.Щербак² – русских топонимов.

Следует признать, что С. Кораев своим трудом «Топонимика» заложил фундамент для широкого развития этого направления в нашей стране. К настоящему времени в этой области выполнен ряд работ. В монографических исследованиях и научной деятельности таких ученых, как Э. Бегматов, З. Дусимов, Н. Махмудов, Д. Худойбергана, Д. Юлдашев³ изучались некоторые стороны собственных имен существительных.

